

Majburiyatlar tugal bajarilishining yuridik negizlari

Majburiyat inson tug‘ilganidan boshlab, shuningdek, vafotidan keyin ham davom etadi. Masalan, vasiyat majburiyati (Fuqarolik kodeksi 1132-moddasi[1]) bo‘yicha vasiyat qiluvchi merosxo‘rning zimmasiga bir yoki bir necha shaxs foydasiga biron-bir majburiyatni (vasiyat majburiyatini) meros hisobidan bajarishni yuklashga haqli bo‘lib, vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchilar vasiyat majburiyati bajarilishini talab qilish huquqini oladilar.

[1] https://lex.uz/docs/180552.

Avvalo, majburiyatning bajarilishi majburiyat shartlariga va qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lishi shart. Agar qonun hujjatlarida qandaydir talab ko‘zda tutilgan bo‘lsa-yu, bu talabni taraflar shartnomaga kiritmagan bo‘lsa ham, mazkur talab majburiyatlar mazmunini tashkil etadi va taraflar uchun majburiydir. Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasi, xizmat ko‘rsatish, boshqa talablarni bajarish. Shuningdek, mahsulotning, xizmatlarning iste’molchi hayoti va salomatligi bilan bog‘liq va atrof-muhit xavfsizligiga oid turli davlat standartlari talablarini bajarish majburiy hisoblanadi.

Majburiyatlarni bajarish shartlari bevosita shartnomada yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bunday holatda majburiyatlar ish muomalasi odatlariga muvofiq ravishda yoki odatda qo‘yiladigan talablarga muvofiq ijro etiladi (Fuqarolik kodeksi 6-moddasi).

“Odatda qo‘yiladigan talablar” deganda, fuqarolik muomalasida shakllangan va o‘rnashib qolgan xatti-harakat qoidalari tushuniladi.

Ijro predmetiga, subyektlariga, joyiga, muddatiga va bajarish usuliga nisbatan qo‘yilgan barcha shartlar va talablarga rioya etilgan holda ijro etilganda, majburiyatlar lozim darajada bajarilgan deb hisoblanadi.

Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bu kabi qoidalar Fuqarolik kodeksining 237-moddasida ifodasini topgan.

Qoidaga ko‘ra, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga (agar shartnomada ko‘zda tutilgan bo‘lmasa) yo‘l qo‘yilmaydi va bu bekor qilish yoki majburiyatni o‘zgartirish kabi huquqiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmaydi. Biroq qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda tarafga majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va majburiyatlarni bir tomonlama o‘zgartirishga ruxsat beriladi, bu holatga asosan boshqa taraf o‘zining muqobil majburiyatlarini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani munosabati bilan yo‘l qo‘yiladi.

Qonun hujjatlarida huquqning buzilishi holati bo‘lmagan holda ham majburiyatni ijro etishdan bir tomonlama bosh tortish imkoniyati ko‘zda tutilgan, bunda tegishli ravishda o‘zaro hisob-kitob taomili nazarda tutiladi. Masalan, pudrat shartnomasi bo‘yicha, agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, buyurtmachi ish natijasi o‘ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan baho bo‘yicha buyurtmachi shartnomadan voz kechganligi to‘g‘risida ogohlantirish olgunga qadar bajarilgan ishning mutanosib qismiga haq to‘lashi mumkin (Fuqarolik kodeksi 642-moddasi to‘rtinchi qismi).

Bir taraf shartnomani bajarishdan to‘la yoki qisman bosh

Ta’kidlash kerak, Fuqarolik kodeksining 236-moddasiga asosan majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmaganida esa – ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak[2].

Yetarli asoslar bo‘lganida sud qarzdorga majburiyatni bajarishni kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib bajarish imkonini berishga haqli. Bu kabi qoidalar kreditorning manfaatlarini himoya qilishga va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

[2] https://lex.uz/docs/111189.



Fuqarolik kodeksining 242-moddasiga binoan agar majburiyatni bajarish muddati koʻrsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qoʻyilgan boʻlsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa – ijroni har qachon amalga oshirishga haqli boʻladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kun ichida bajarishi shart.

tortib, qonun yoxud taraflarning kelishuvida bunga yoʻl qoʻyilsa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan yoki oʻzgartirilgan hisoblanadi (Fuqarolik kodeksining 382-moddasi toʻrtinchi qismi).

Ta'kidlash joizki, Fuqarolik kodeksining 238-moddasiga koʻra "Majburiyat kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilishi shart.

Majburiyatni bajarish usuli, agar bu usul majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa va qonun bilan belgilab qoʻyilgan boʻlmasa, shartnomada koʻrsatilgan boʻlishi kerak".

Majburiyat kelishilgan va tomonlar uchun maqbul usulda bajarilishi shart, aks holda majburiyat bajarilmagan deb e'tirof etilishi ham mumkin.

Kelishilganlik shartnomada shartlashayotgan taraflar ma'qul deb topgan ijro etish usullarining koʻrsatilganligini, taraflarning huquq va manfaatlarini buzmasligini va taraflar uchun iqtisodiy jihatdan foydaliligini anglatadi.

Masalan, tovarlarni yetkazib berishda ular uchun temiryoʻl transporti orqali yetkazib berish muddatlariga koʻra ham, bahosiga koʻra ham eng ma'qul usul ekanligini taraflar kelishib olishadi. Aviatsiya yordamida yetkazib berish esa nomaqbul, zero, iqtisodiy jihatdan foydali emas. Mana shu masalaning har ikki tarafning roziligi bilan hal etilishi ularning kelishilgan irodasi hisoblanadi va shartnomada aks ettiriladi.

Agar taraflardan biri ijro etishning kelishilgan usullarini buzsa, ikkinchi taraf faqat bajarilishi ustida nizolashuvi va uni lozim darajada emas deb e'tirof etishi mumkin.

Bundan tashqari, majburiyatning qismlarga boʻlib bajarilishiga oid qoidalar Fuqarolik kodeksining 239-moddasida belgilangan boʻlib, unga asosan basharti boshqacha tartib qonunchilikda, shartnomada nazarda tutilgan boʻlmasa yoki ish muomalasi odatlaridan yoxud majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor majburiyatning qismlarga boʻlib bajarilishini qabul qilmaslikka haqli.

Majburiyatning qismlarga boʻlib bajarilishini qabul qilmaslikning iqtisodiy sabablari ham boʻlishi mumkin (qoʻshimcha ekspeditorlik xarajatlari, saqlash bilan bogʻliq xarajatlar va boshqalar). Zero, qismlarga boʻlib bajarish chogʻidagi xarajatlar

majburiyat bir martada to‘liq bajarilganda zarur bo‘ladigan xarajatlardan ortib ketishi mumkin.

Shunday bo‘lsa-da, qarzdorning ijroni qismlarga bo‘lib bajarish huquqi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilishi yoki ish muomalasi odatlaridan yoxud majburiyat mohiyatidan kelib chiqishi mumkin. Masalan, Fuqarolik kodeksining 443-moddasida mahsulot yetkazib beruvchining ayrim davrda to‘liq yetkazib berilmagan tovarlar o‘rnini to‘ldirish bo‘yicha o‘rnatilgan majburiyatini ko‘rsatish mumkin.

Qarzdor majburiyatni birdaniga to‘liq bajarishi shartnomada belgilangan holda u majburiyatni qismlarga bo‘lib bajarishni taklif etsa kreditor bu taklifni qabul qilmaslikka haqli (majbur emas). Agar qarzdor buni amalda qilsa, bu holda qarzdor ijro muddatini kechiktirib yuborgan deb hisoblanadi va muddatni o‘tkazib yuborgani uchun javobgarlikka tortiladi (Fuqarolik kodeksi 337-moddasi).

Agar kreditor qarzning bir qismini olishdan haqli ravishda bosh tortsa (ijro kredit majburiyatiga muvofiq to‘liq ijro etilishi shart bo‘lgan holda), qarzdor qarzning hamma summasidan kelib chiqqan holda, shu jumladan kreditor olishdan haqli ravishda bosh tortgan qismini ham qo‘shgan holda, foiz to‘lashi shart.

Amalda moddiy ne’matlarni (tovarlar, pullar) kreditorga tegishli bo‘lmagan shaxsga (qarzdorning ehtiyotsizligi, kreditor nomidan uchinchi shaxslar tomonidan qalbaki hujjatlarning taqdim etilishi oqibatida) o‘tkazib berilishi, topshirilishi holatlari ham uchraydi.

Ushbu boradagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun majburiyatning tegishli shaxs uchun bajarilishiga oid bo‘lgan qoidalar Fuqarolik kodeksining 240-moddasida belgilangan bo‘lib, unga binoan, agar boshqacha tartib taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan bo‘lmasa va ish muomalasi odatlaridan yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor majburiyatni bajarish chog‘ida ijroni kreditorning o‘zi yoki bu ish uchun u vakolat bergan shaxs qabul qilayotganligini isbotlashni talab qilishga haqli bo‘ladi va bunday talabni qo‘ymaganlik oqibatlari xavfi uning zimmasida bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksining mazkur moddasida qarzdorga ijroni talab etayotgan yoki qabul qilayotgan shaxsning vakolatlarini tekshirib ko‘rish, uning haqiqatdan ham kreditor ekanligiga yoki tegishli vakolatga ega shaxs ekanligiga ishonch hosil qilish huquqi berilgan.



Agar kreditor fuqaro bo‘lsa, shu jumladan tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi fuqaro bo‘lsa, uning shaxsi pasporti bo‘yicha aniqlanadi, kreditor vakilining vakolatlari (kreditor fuqaro yoki tashkilot ekanligidan qat’i nazar) lozim darajada rasmiylashtirilgan ishonchnoma hamda vakilning shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida aniqlanadi.

Agar vakil tashkilot bo‘lsa (masalan, mijoz nomidan harakat qiluvchi ekspeditor), uning vakolati kam deganda ikkita ishonchnoma:

- mijozning ekspeditorga, ya’ni yuridik shaxsga bergan ishonchnomasi;
- va ekspeditor – yuridik shaxsning o‘z xodimiga bergan ishonchnomasi asosida aniqlanadi.

Qayd qilinganlardan tashqari, majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash mumkin.

Fuqarolik kodeksining 241-moddasiga asosan shartnomadan kelib chiqqan majburiyatni to‘la hajmda yoki uning bir qismini bajarish, agar qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, shuningdek agar uchinchi shaxs taraflardan biri bilan shartnoma orqali bog‘liq bo‘lsa, uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Agar majburiyatni qarzdorning shaxsan o‘zi ijro etishga majburligi qonun hujjatlari, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan taklif qilingan ijroni qabul qilishi shart.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun, basharti qonun hujjatlari yoki shartnomada uchinchi shaxsning javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomadagi taraf javobgar bo‘ladi.

Majburiyatlarni uchinchi shaxsga yuklash fuqarolik muomalasida, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatida va avvalo subkontragentlik munosabatlarida keng tarqalgan.

Yuqorida qayd qilingan moddaning qoidalari tranzit orqali yetkazib berishda, subpudrat (yordamchi pudrat) holatlarida, subijara va subkomissiya holatlarida qo‘llanadi.

Majburiyatni qarzdorning shaxsan o‘zi ijro etishga majburligi qonun hujjatlari, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan taklif qilingan ijroni qabul qilishi shart.

“Majburiyatning mohiyatidan” degan iboraning va qarzdorning shaxsan o‘zi ijro etishi to‘g‘risidagi shartlarning kiritilganligi ijroning o‘tkazilishi majburiyat predmetini tashkil etuvchi xatti-harakatlarning xususiyatiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Aytaylik majburiyat ijodiy xususiyatga ega bo‘lgan holatda (rassom, rejissyor, yozuvchi va shu kabilar bilan shartnoma), qarzdor uni uchinchi shaxsga o‘tkazib bera olmaydi. Qarzdor majburiyatni shaxsan ijro etishi qonun hujjatlarida shart qilib qo‘yilgan holatga Fuqarolik kodeksining 884-moddasida keltirilgan omonatning uchinchi shaxsga topshirilishi buni yuk topshiruvchining manfaatlari zarur qilib qo‘ygan va omonat saqlovchi uning roziligini olish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan holatlardan boshqa barcha holatda taqiqlanishi misol bo‘ladi.

Qarzdorning majburiyatlarni bajarmaganlik uchun kreditor oldidagi javobgarligi, majburiyat uchinchi shaxsga o‘tkazib berilishiga qaramay saqlanib qoladi. Fuqarolik kodeksining 241-moddasi uchinchi qismiga muvofiq majburiyatning bajarilmaganligi uchun, basharti qonun hujjatlarida yoki shartnomada uchinchi shaxsning javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomadagi taraf javob beradi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, uchinchi shaxs tomonidan majburiyat ijrosi bo‘yicha tegishli xatti-harakatlarning amalga oshirilishi bilan, xuddi ana shu harakatlarni qarzdorning o‘zi amalga oshirgan holatdagi kabi, mazkur majburiyat bekor bo‘ladi.

Shartnomada majburiyatni bajarish muddatining ko‘rsatilishi shartnoma mazmunining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tovarlarni yetkazib berishda ular uchun temiryo‘l transporti orqali yetkazib berish muddatlariga ko‘ra ham, bahosiga ko‘ra ham eng ma’qul usul ekanligini taraflar kelishib olishadi. Aviatsiya yordamida yetkazib berish esa nomaqbul zero iqtisodiy jihatdan foydali emas.

Demak, majburiyat o‘zida uni bajarish muddatini ham nazarda tutadi.

Fuqarolik kodeksining 242-moddasiga binoan agar majburiyatni bajarish muddati ko‘rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa – ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo‘ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kun ichida bajarishi shart.

Qarzdor uchun majburiyatni bajarishning muayyan muddati (talab qo‘yilgandan boshlab yetti kun) kreditor majburiyatning bajarilishini talab qilgan kundan boshlab aniqlashtiriladi.

Biroq qonun hujjatlarida muddati ko‘rsatilmasdan tuzilgan majburiyatlarni bajarishning ayrim holatlarini tartibga soluvchi qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan. Masalan, Fuqarolik kodeksi 735-moddasining ikkinchi qismida qarz oluvchi qarzini qarz beruvchi qarzni qaytarish haqida talab qo‘ygan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida qaytarishi kerakligi belgilangan. Fuqarolik kodeksi 762-moddasining mazmuniga binoan fuqaroning bankda saqlanadigan omonati talab qilinishi bilanoq berilishi shart yoki bo‘lmasa, majburiyatni bajarish muddati shartnomaning amal qilish muddatiga muvofiq (Fuqarolik kodeksining 357-moddasi) o‘rnatilishi mumkin.

Shartnomada belgilangan muddatning tugashi olingan majburiyatni kelajak vaqt uchun bekor qiladi.

Shartnomaga oid bo‘lmagan majburiyatlar holatida majburiyatni bajarish muddati qonun tomonidan yoki sud qarori bilan tartibga solinadi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 1009-moddasida boquvchisi vafot etganligi natijasida ziyon ko‘rgan shaxslarga zararni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan.

E’tirof etish kerakki, majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga yo‘l qo‘yiladi. Fuqarolik kodeksining 243-moddasiga ko‘ra agar qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa yoxud majburiyatning mohiyatidan yoinki ish muomalasi odatlaridan yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablardan anglashilsa, qarzdor majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga haqli, kreditor esa – ijroni muddatidan ilgari qabul qilishi shart.

Ushbu modda qarzdor tomonidan majburiyatning muddatidan ilgari bajarilishiga kreditorning roziligi bo‘lishini ham nazarda tutadi. Shuningdek, qonunchilikda majburiyatlarning muddatidan ilgari bajarilishi cheklab qo‘yilishi mumkin. Masalan, foiz evaziga berilgan qarz summasining, agar shartnomada o‘zgacha qoida ko‘zda tutilgan bo‘lmasa, qarz beruvchining roziligisiz muddatidan ilgari qaytarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (Fuqarolik kodeksining 735-moddasi to‘rtinchi qismi).

Majburiyatning kreditorning roziligisiz muddatidan ilgari bajarilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan yana bir holat majburiyatning asl mohiyatining o‘zidan kelib chiqadi. Masalan, egasining safarga chiqib ketishi munosabati bilan qo‘yilgan omonatni saqlovchining tashabbusi bilan ashyoning egasi bo‘lgan fuqaroga, avval belgilab qo‘yilgan muddatidan ilgari qaytarilishi majburiyatning mohiyatiga zid bo‘ladi (Fuqarolik kodeksining 878-moddasi).

Shu bilan birga, majburiyatning muddatidan ilgari bajarilishi ayrim holatlarda maqsadga muvofiq bo‘lib, hatto Fuqarolik kodeksida rag‘batlantiriladi, yana ayrim holatlarda qarzdorga kreditor oldidagi majburiyatini uning xohishidan qat’i nazar bajarish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, foizsiz qarz summasini qarz oluvchi muddatidan ilgari qaytarishi mumkin (Fuqarolik kodeksining 735-moddasi uchinchi qismi).



Ta’kidlash joizki, majburiyatning muddatidan ilgari bajarilishini qabul qilishdan bosh tortgan kreditor (Fuqarolik kodeksining 337-moddasi uchinchi qismi) muddatni kechiktirib yuborgan hisoblanadi. Bu Fuqarolik kodeksining 338-moddasida ko‘zda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Qayd qilinganlardan tashqari, aytish lozim, majburiyatni bajarishni kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib bajarishga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 244-moddasiga asosan agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyatni bajarishni kechiktirishga yoki uni bo‘lib-bo‘lib bajarishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yetarli asoslar bo‘lganida sud qarzdorga majburiyatni bajarishni kechiktirish yoki uni bo‘lib-bo‘lib bajarish imkonini berishga haqli. Bu kabi qoidalar kreditorning manfaatlarini himoya qilishga va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Aksariyat hollarda majburiyatni bajarish muddati shartnomada ko‘rsatilgan yoki qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan bo‘ladi.

Qonunchilikda qarzdor majburiyatlarini bajarish shartlarini buzganda va majburiyatni bajarishni qonun hujjatlari va shartnomaga zid ravishda kechiktirganda yoki bo‘lib-bo‘lib bajarganda jazo choralari qo‘llash nazarda tutilishi mumkin (Fuqarolik kodeksining 736-moddasi birinchi qismi, shuningdek, 327-moddasi).

Xulosa qilib aytganda, majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi jamiyat va davlatning rivojlanishiga yordam beradi.

Doniyor RAXIMOV,
Yuristlar malakasini oshirish markazi professori v.b., y.f.d. (DSc)